

XXIASR TILSHUNOSLIGI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

**Рахматова Дилнавоз Абдимурадовна Ўзджту
немис тили амалий фанлар кафедраси стажёр
ўқитувчиси**

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o‘rganishda raqamlitexnologiyalardan foydalanishning bir qancha samarador imkoniyatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Raqamli texnologiya tushunchasi va uning chet tillarini o‘qitishda qo‘llanilishining turli zamonaviy usullari solishtiriladi va batafsil ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning uslubiy, didaktik va tarbiyaviy xususiyatlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: texnologiya, uslubiy, didaktik, ta’lim, beba ho, axborot-kommunikatsiya, smart.

Аннотация: В данной статье изучаются и анализируются несколько эффективных возможно стей ис пользования цифровых технологий в изучении иностранных языков. Подробно сравниваются и рассматриваются понятие цифровой технологии и различные современные методы ее применения в обучении иностранному языку. Также анализируются методологические, дидактические и образовательные особенности цифровых технологий.

Ключевые слова: технология, методологическая, дидактическая, образование, бесценное, информационно-коммуникационное, умное.

Kirish: O‘tgan asrning oxiridan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida, jamiyatimizda yangi raqamli avlod yetishib chiqdi. Ular uchun ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda smart qurilmalar va gadgetlardan foydalanish, yashash maydonining ajralmas elementlari biri bo‘lib hisoblana boshlandi. Simsiz tarmoqqa o‘tish, smart-terminallarning tarqalishi, Smart qurilmalarning rivojlanishi, mobil ofisning kengayishi jamiyatning yangi sifati bo‘la boshladi. Unda insonlar tomonidan texnik vositalar va Internet xizmatlaridan foydalanishning uyg‘unlashuvi yangi

sifatiy natijalarga olib keladi. Natijada sub'ektlarning o‘zaro ta'siri oqibatida raqamli o‘zgarishlar va yangi samaralarni olish imkonini yaratiladi. Ijtimoiy, iqtisodiy, ta'lim. Barcha sohalarida aqlii jamiyatning shakllanishi global tendentsiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Gollandiya , Avstraliya va Koreyata’limning smart kontseptsiyasini e’lon qilishdi.[1.18-21]

Gollandiya davlatita'limni smart texnologiyalar asosida rivojlantirishni milliy g‘oya va asosiy siyosiy vazifa sifatida ko‘radigan rivojlanish strategiyasini qabul qildi. Ular smart ta’limni rivojlantirish asosida Smart iqtisod va Smart jamiyat tashkil etishni bosh siyosiy vazifa sifatida ko‘ra boshlashdi. Avstraliyada esa kuchli aqlii mamlakat strategiyasi ta'lim inqilobi orqali amalga oshirilishi nazarda turilgan. Janubiy Koreya Respublikasida esa Smart Education axborot jamiyatini qurishda asosiy tizimli yechim hisoblanib, u milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashning asosiy usullaridan biri deb qaraladi. Bugungi kunda boshqa ko‘plab rivojlangan davlatlar ham aqlii ta'limni rivojlantirish yo‘lidan borishmoqda. Yangi Smart Society (aqlii informatsion jamiyat) modeli zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida inson uchun intellektual, yuqori texnologiyali va qulay muhit yaratishni nazarda tutadi.

Asosiy qism: Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi – inson huquqlari va manfaatlari to‘la-to‘kis ta’milanadigan fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishdan iboratdir. Insoniyat tarixida tilga doimo katta e’tibor beribkelingan: “Shu zamon donishmandlarining biridan xalqning ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalayotganini qanday bilish mumkinligi to‘g‘risida so‘ralganda, donishmand uch narsani sanagan ekan. Birinchisi, o‘sha xalqning qahramonlik eposi jonli ijroda yozib olingan bo‘lishi, ikkinchisi, o‘sha xalq tiliga oid izohli lug‘at tuzilgan bo‘lishi, va nihoyat, shu xalqning Milliy ensiklopediyasi mavjud bo‘lishi lozim ekan”. Shukurki, bizda har uchalasi bor.[2.32-35]

XXI asrda tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g‘oyasi keng yoyildi. Bu bejizga emas. Chunki jahondagi ko‘pgina mamlakatlar o‘z mustaqilligiga erishib, davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ham ega bo‘ldi. 1989-yil 21-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashisessiyasining muhokamasidan so‘ng o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro‘y berdi. Til haqidagi qonunning qabul qilinishi ona tilimiz bo‘lmish o‘zbek tilining muhofazasini ta’minladi. Hayotimizning barcha sohalarida ona tilimizdan keng qo‘llanila boshlandi. O‘zbekistonning mustaqil suveren davlatsifatida dunyo xaritasidan joy olishi esa mazkur qonunning kuchini yanada oshirdi. Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma’naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir [3.4-9]. U millatni yagona xalq sifatida o‘z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta’min etadi. Har bir millatning o‘z Vatani, oilasi bo‘lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo‘ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, ona tili ham shu qadaraziz va muqaddasdir. Hattoki, go‘dak ham o‘z vatanini, ota-onasini, dunyoni o‘z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o‘rni beqiyos bo‘lganidek, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishida, kamolotga yetishida tilning o‘rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining beba ho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg‘u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk ma’rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidur. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug‘urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”. Suvsiz daryo bo‘lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo‘lgan til, o‘sha millat bilan yashaydi va bardavom bo‘ladi.[4.25-31]

Tili rivojlanmagan elning ruhida yuksalish bo‘lmaydi, u o‘zligidan, milliyligidan tobora uzoqlashaveradi. Milliy til xuddi bayroq, madhiya, gerb kabi qadrli va aziz. Unda har bir millatning ruhi, dunyoqarashi aks etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bo‘ylab nishonlanayotgan “O‘zbek tili bayrami” yana bir bor ona tilimizning beqiyos ahamiyatini, tarixiy qadr-qimmatini ko‘z oldimizda namoyon etdi. “Davlat tili haqida”gi qonunning ahamiyati, shuningdek, o‘tgan davr mobaynida ona tilimizning nufuzini oshirish borasida bajarilgan ishlar millatimizning yuragi, ruhi, tom ma’noda joni hisoblangan ona tilimizni asrashdan iborat.[5.12-20] Til – millat ko‘zgusidir. Til – millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasi, tunganmasmulkidir. So‘z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyasarlarining tili biz o‘rganayotgan shu tilning asosi hisoblanadi. Buyuk adabiyoti bo‘lgan xalqning buyuk tili ham bo‘ladi. Insonning qanday ma’naviyatga ega ekanini uning tilidan, chiroyli nutqida namoyon bo‘ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasi, tunganmasmulkidir.

Foydalaniłgan adabiyotlar.

1. Godwin-Jones B. Blogsandwikis: Environmentfor on-linecollaboration //LanguageLearningandTechnology. 2003. № 18-21
2. Kessler G. Student-initiatedattention to form in wiki-basedcollaborativewriting //LanguageLearningandTechnology. 2009. № 1.32-35
3. Кошеляева Е.Д. Методикаразвитиясоциокультурныхумений студентовпосредствомсоциальногосервиса «Вики» (английскийязык, языковойвуз) : дис. канд. пед. наук. М. : МПГУ, 2010.С.4-9
4. Маркова Ю.Ю. Методикаразвитияуменииписьменнойречи студентовнаосновевики-технологии (английскийязык, языковойвуз) : дис. ... канд. пед. наук. М.: МГГУ им. М.А. Шолохова, 2011.С.25-31
5. Сысоев П.В. Дидактические свойства и функции современных информационных и коммуникационных технологий // Иностранные языки в школе. 2012. № 6. С. 12–20
6. Ахмаджонов Н. Analysis of poetonyms used in poetry // International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 12, volume 104 published December 30, 2021 P. 509-512 Impact Factor:

Philadelphia, USA ISRA (India) = 6.317 ISI (Dubai, UAE) = 1.582 GIF (Australia) = 0.564 JIF = 1.500 SIS (USA)= 0.912 РИНЦ (Russia) = 3.939 ESJI (KZ) = 9.035 SJIF (Morocco) = 7.184 ICV (Poland) = 6.630 PIF (India) = 1.940 IBI (India) = 4.260 OAJI (USA) = 0.350

7. Ахмаджонов Н. Analysis of poetonyms in prose works// International interdisciplinary research journal (girj) Volume 10, Issue 2, February, 2022 ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.472 P. 487-490